

XALQ TA'LIMI

ISSN 2181-7839

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2021

2-son
(Maxsus)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT



TAHRIRIYAT

4 Oliy ta'limda kredit-modul tizimi – ta'limning mehnat bozoriga transformatsiyasidir



TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI

- | | | |
|----------------------------------|----|---|
| Sh. Mardonov,
O. Jabborova | 6 | Ta'lilm jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq qilishning tashkiliy-pedagogik jihatlari |
| A. Abdullayev | 9 | Boshlang'ich ta'limd jismoniy tarbiya darslarini sog'lomlashtirishga yo'naltirish metodikasi |
| D. Maxmudova | 12 | Maktabgacha yoshdag'i bolalarni estetik tarbiyalash muammosiga nazariy yondashuvlar |
| M. Musurmonova | 16 | Umumiy o'rta ta'lilm maktablari boshlang'ich sinflarida ta'lim sifatini oshirishda "Matematika" fanining ahamiyati |
| R. Musurmanov,
M. Musurmonova | 20 | Umumiy o'rta talim maktablarida pedagogik konfliktlar va ularning profilaktikasi muammolari xususida |
| F. Ochilov | 23 | Umumiyo'rta ta'limmaktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining amaliy faoliyatini takomillashtirishda "Atrofimizdagi olam" va "Tabiatshunoslik" darslarining ahamiyati |
| B. Axmadaliyev | 27 | Umumiy o'rta ta'lilm maktablari boshlang'ich sinf o'quvchilarining estetik bilimlarini va ijodkorlik qobiliyatlarini shakkantirishda texnologik ta'lim darslarining ahamiyati |
| G. Tojiboyeva,
Z. Suleymanova | 31 | Boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini o'stirishda didaktik o'yinlarining roli |
| U. Sermatova | 35 | Millat ruhini saqlash yo'lida |
| F. Atabekov | 39 | Bola tafakkurining rivojlanishida jismoniy tarbiya mashhg'ulotlarining o'mni |
| O. Jabborova | 43 | Yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda boshlang'ich ta'limni rivojlanterishning pedagogik muammolari |
| M. Achilova | 46 | Shaxsning jismoniy, psixologik rivojlanishida pedagogikaning roli |
| D. Po'latova | 50 | Xalq ta'limi tizimida "Barkamol avlod" maktablari |
| Z. Umarova | 54 | Ta'lilm muassasalaridagi nizolarni hal qilish |



TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI

- | | | |
|---|----|---|
| M. Abdullayeva | 57 | Pedagogik va tarbiyaviy ishlар metodikasi |
| G. Kuzmanova,
B. Alimov,
N. Beketov | 61 | Uchinchi tartibli tenglamalar |
| X. Gulyamova | 65 | Umumiy o'rta ta'lilm maktablarining boshlang'ich sinflarida o'qish metodikasi |
| R. Nosirova | 69 | Maktabgacha ta'limd metakognitiv ko'nikmalarni shakkantiruvchi metodlarni qo'llash orqali bolalarni maktabga tayyorlash |



ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI

- | | | |
|-------------|----|---|
| D. Mutalova | 73 | Ta'lilm klasteri talabalarni innovatsion kasbiy tayyorlashning innovatsion asosi sifatida |
| L. Boliyeva | 76 | Oliy ta'limd "Steam" texnologiyasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari |

	X. Gulyamova, U. Shermatova 79 Ta'lim texnologiyalari asosida o'quvchilarni xalqaro "pirls" nazoratiga tayyorlash
	A. Karimjonov, O. Jabborova 83 Umumiy o'rta ta'lim maktablari boshlang'ich sinflarida "tarbiya" fanini o'qitishning zamonaviy texnologiyasi
	Z. Shanasirova 86 Balolarni maktabga tayyorlashda multimedia vositalaridan foydalanish afzalliklari
MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	
	R. Nosirova, N. Rustambekova 89 O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-ylgacha rivojlantirish konsepsiyasini amaliyatga joriy etish texnologiyalari
JISMONIY TARBIYA VA SPORT	
	E. Soatov 93 Sportchilarning jismoniy tayyorgarligini oshirishda ularning psixologik holatini o'rganish
	F. Abdullayev B. Abdullayeva 97 Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarning jismoniy rivojlanishida jismoniy mashqlarning o'mi
	A. Jo'raboyev 101 Jismoniy tarbiya va sportning bola tafakkuriga ta'siri
	E. Hurramov 104 Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya mash'ulotlariga umumiy tasnif
MAKTABGACHA TA'LIM	
	N. Maripova 107 Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarga noan'anaviy applikatsiya yasash usullarini o'rgatish
	A. Sanakulova 111 Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonlar samaradorligini oshirish bo'yicha ayrim takliflar
	Z. Teshabayeva 114 Maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish o'yin faoliyati shakllarini tashkil etish
	L. Narimbayeva 117 Maktabgacha yoshidagi bolalar hayotida teatrning roli
	N. Urinova, A. Abdullayev 121 Ilk yoshidagi bolalarning rivojlanishida nutqning ahamiyati
	Z. Nasirova 124 Maktabgacha yoshidagi bolalar nutqini o'stirishda tilning fonetik, leksik va grammatick aspektlari
	S. Xolmatova 128 Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning matematik tafakkurini shakllantirish omillari
ILM, MA'RIFAT VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR	
	Z. Narimbetova 131 Matematika darslarda o'quvchilar ijodkorligini rivojlanishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning o'mni
ТЕОРИЯ ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ	
	Ш. Мардонов, У. Закирова 134 Об основных понятиях педагогических ценностей
	Ю. Кушназарова 138 Теоретические исследования в математике
ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА И СПОРТ	
	Р. Гимазутдинов 141 Знания по физической культуре – основа физкультурного образования дошкольников

Zahro SHANASIROVA,
Chirchiq davlat pedagogika instituti
"Maktabgacha ta'lím" kafedrası o'qituvchisi

BOLALARНИ MAKTABGA TAYYORLASHDA MULTIMEDIA VOSITALARIDAN FOYDALANISH AFZALLIKLARI

Annotation

Maqolada bolalarni maktabga tayyorlashda multimedia vositalari asosida bolalarni o'qitishning afzalliklar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, muallif maktabgacha ta'lím muassasasida bolalarni sog'iom har tomonlalama kamol topib shakllanishini ta'minlanishini aytib o'tgan.

Kalit so'zlar. Multimedia vositalar, faoliyat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, elektron multimediali resurslar.

В статье дается представление о преимуществах обучения детей на основе мультимедийных средств в подготовке детей к школе. Также автор отметил, что в дошкольном образовательном учреждении детям обеспечивается здоровое, всестороннее развитие.

Ключевые слова. Мультимедийные средства, виды деятельности, информационно-коммуникационные технологии, электронные мультимедийные ресурсы.

The article gives an idea of the advantages of teaching children based on multimedia tools in preparing children for school. The author also noted that in a preschool educational institution, children are provided with healthy, comprehensive development.

Key words. Multimedia tools, types of activities, information and communication technologies, electronic multimedia resources.

Hар qaysi davlat o'z rivojlanish yo'lini ilm fansiz tasavvur eta olmaydi. Shuningdek, mamlakatimizda ham ilm fanni rivojlantirish, malakali teran fikrlaydigan kadrlarni tayorlash masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Butun dunyoda ta'lím tizimini rivojlantirish uchun juda katta mablag' sarflanadi. Dunyo pedagoglarning eng katta muammlaridan biri o'qitish jarayonini soddalashtirish, o'quvchilarning bilim darajasini yuksaltirish, ularning fanni chuqur o'zlashtirish uchun ko'plab ta'lím shakllari hamda metodlar ishlab chiqilmoqda. "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3931, shuningdek, Qaroriga muvofiq, ta'lím bosqichlarining uzlusizligi va izchilligini ta'minlash, ta'límning zamonaviy metodologiyasini yaratish, davlat ta'lím standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o'quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hamda pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish taqozo etadi. "O'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash" modulining ishchi o'quv dasturi xalq ta'limi xodimlari va o'qituvchilar malakasini oshirish kurining o'quv dasturi asosida tuzilgan bo'lib, bu modul o'qituvchilarining pedagogik faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini vositalardan o'quv jarayonida foydalanish, elektron multimediali resurslarini yaratish imkonini ochib beradi.

Maktabgacha ta'lím muassasalari tarbiyalanuvchilarning ongida g'oyaviy bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'ymaslik, ularni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbi-

yalash va Vatanimiz ravnaqiga xizmat qiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo'lidagi dolzarb vazifalarni amalga oshirish, mактабгача та'lім muassalarida tashkil etiladigan та'lім-tarbiya jarayonlarining barcha jabxalarini qamrab olishi zarur bo'lib, mazkur та'lім-tarbiya jarayonlarida о'рганилагатган tushunchalarga, hodisa yoki voqe-likka nisbatan tarbiyalanuvchilarining qiziqishini shakllantirish va rivojlantirishda ularning faolligini ta'minlash muhim ahamiyaga ega.

O'sib kelayotgan yosh avlodning barcha imkoniyatlari unda namoyon bo'ladi, kasb-kori, mahorati uzlusiz takomillashadi, katta avlodning dono tajribasi anglab olinadi va o'zlashtiriladi. O'qituvchining bilimi, pedagogik mahorati qizg'in mehnati barkamol avlodni tarbiyalashga, ularda tashabuskorlik, faoliik, ishbilarmonlik, ijodkorlik, tadbirkorlik hislatlarini va ma'naviy ongini shakllantirishga qaratilgan degan purma'no so'zлari beziz aytildagan.

Ayni paytda maktabgacha та'lім muassasalari tarbiyachisining mustaqil ravishda bilim egallab o'z ustida tinimsiz ish olib borishi bugungi kunning kechiktirilib bo'lmaydigan talablaridan biridir.

Bog'cha yoshidagi bolalar juda sinchkov va qiziquvchandirlar. Ular ko'p savol beradilar va hamma narsalarni bilishni xohlaydilar. Ba'zida ularning savollariga javob topish mushkul bo'lib qoladi. Tarbiyachi esa bolalarning son sanoqsiz savollariga ularning yosh jihatlarini e'tiborga olgan holda astalik bilan bittama-bitta javob berishi lozim. Bolalarning bunday qiziquvchanligi yaxshi albatta chunki, bola ulg'aymoqda va u o'ziga yangi olamni bilish natijasida yaratayapti.

Maktabgacha та'lім muassasasi bola sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, bolada o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni muntazam та'lім olishga tayyorlaydi. Mazkur tizimda tarbiyani rivojlantirish uchun amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarning biri zamonaviy o'quv qo'llanmalar, texnik vositalar, o'yinchoqlar va o'yinlar yaratish hamda ularni ishlab chiqarishdir.

Rivojlangan mamlakatlarda o'qitishning usuli hozirgi kunda та'lім sohasi yo'nalishlari bo'yicha tadbiq qilinmoqda. Amaliyat shuni ko'rsatmoqdaki, multimedia vositalari asosida maktabgacha та'lім tashkilotlarida bolalarni o'qitish ikki barobar unumli bo'lishi bilan birga vaqtidan ham yutish mumkin. Multimedia vositalari asosida bilim olishda vaqtini tejash mumkin bo'lib, olingen bilimlar esa xotirada uzoq muddat saqlanib qoladi. Agar bolalarga berilayotgan materiallarni ko'rish asosida qabul qilsa, axborotni xotirada saklashni oshirib boradi. Bunga qo'shimcha sifatida o'quv materiallari audio, video va grafika ko'rinishda mujassamlashgan holda berilsa, materiallarni xotirada saqlab qolish yanada ortadi. Bunga multimedia vositalari asosida bolalarga chet tillarni o'rgatishda yana bir bor ishonch xosil qilindi. Bolalarni maktabga tayyorlashda multimedia vositalari asosida bolalarni o'qitish quyidagi afzallikkлага ega:

- berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish imkoniyati borligi;
- та'lім olishning yangi sohalari bilan yaqindan aloqa qilish ishtiyoqi yanada ortadi;
- та'lім olish vaqtining qisqarish natijasida, vaqtini tejash imkoniyatiga erishish.

O'qitish jarayonining samaradorligini oshirishda innavatsion pedagogik texnalogiyalarining muhim ahamiyatga egaligini esdan chiqarmaslik zarur. Inavatsion texnalogiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular tarbiyachi va bolalarning o'zaro muloqoti hamda bir birlari bilan o'tkazilgan savol javoblari asnosida amalga oshiriladi. Muloqot shaxslararo munosabatlarning shunday ko'rinishidirki uning yordamida insonlar bir birlari bilan o'zaro axborot almashadilar, bir birlariga ta'sir o'tkazadilar, bir birlarini his qiladilar bir birlarini tushunadilar. Innavatsion texnologiyalarni

mukammal o'zlashtirish, ularni dars jarayonida samarali foydalanishni taqazo qiladi.

Tarbiyachilar bunday faoliyatga alohida tayyorgarlik ko'rishlari lozim bu o'z navbatida, ta'lif muassasalarining rahbarlari va o'quv uslubiyat xodimlarining asosiy vazifalaridan bo'lgan ta'lifni rivojlantirishning istiqbol rejalarini tuzishda asosiy e'tiborni tarbiyachilarining u yoki bu asosda ijodiy faoliyat yuritishlari uchun zamin yaratish hamda tushuntirish ishlarini olib borishga qaratishlarini talab etadi. Ma'lumki maktabgacha tarbiya jarayonida ko'rgazmali harakat va ko'rgazmali obrazli tafakkur turlari ustuvor ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta'lif muassasalarida muntazam tashkil etib kelinayotgan bir qancha bolalar salohiyatini rivojlantiruvchi madaniy-ma'rifiy tadbirlar hamda rivojlantiruvchi o'yinlar shular jumlasidandir.

Jahon pedagoglarining ilmiy xulosalariga ko'ra, inson umri davomida oladigan barcha axborotning katta qismini bolalik davrida o'zlashtirar ekan. Shu vaqt oralig'iда u atrof-muhitda sodir bo'layotgan o'zgarishlarni baholash, har qanday hajm va murakkablikdan qat'i nazar ma'lumotlarni xotirasida saqlab qolish va tahsil qiliш, bir so'z bilan aytganda ong va tafakkurining rivojlanishiga erishishi mumkin. Buning uchun esa bolalar bilan uzuksiz muloqotda bo'lish, turli xil aqliy mashqlar bilan ularning idrokini chiniqtirish, intellektual bahslar orqali IQ, ya'ni fikrlesh qobiliyati koeffitsientini oshirish zarurdir. Kun davomida mehnat qiluvchi ota-onalar uchun esa bu ishlarни bajarish bir muncha mushkullik tug'diradi. Shuning uchun ular mazkur mas'uliyatli vazifani bog'chalarga ishonib topshiradilar.

Shu sababli maktabgacha ta'lif tizimi uzuksiz ta'lifning birlamchi, eng asosiy bo'g'ini deya e'tirof etiladi. Farzandlarining yetuk va barkamol shaxs bo'lib voyaga yetishida bog'cha tarbiyasi qanchalik katta ahamiyatga ega ekanini yaqqol anglagan Prezidentimiz esa ushbu tarmoq rivojiga kechiktirib bo'lmash masala sifatida e'tibor qaratmoqda. Xususan, mamlakatimizda milliy genofondni mustahkamlash, yosh avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalash maqsadida, Prezidentimizning "Maktabgacha ta'lif tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi tarixiy farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi tarixiy qarori qabul qilindi va sohada butkul yangi tizim yaratildi.

Bog'cha tarbiyasini olgan bola bilan bog'chaga bormagan bolani solishtirganda, ularning fikrlesh darajasi o'tasida yer bilan osmoncha farq borligini sezish qiyin emas. Shuning uchun ham bugun shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan maktabgacha ta'lif tizimini qayta ko'rib chiqish masalasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, bu borada katta ishlar boshlandi.

Shu tariqa bolalar bilan olib boriladigan aqliy o'yinlar murakkablashib barcha tartib qoidalarga riosa qilib o'tkazilsa, tarbiyalanuvchilarni mustaqil fikrleshga o'rgatib borishi shubxasizdir. Tarbiyachilar esa mashg'ulotlar, ko'ngil ochar o'yinlar, didaktik va harakatli o'yinlardan hamda boshqa faoliatlardan unumli foydalanishlari lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni. /Rasmiy nashr/ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. – T.: Adolat, 2017. 112 b.

2. O'zbekiston respublikasi xalq ta'limi vazirligi Jizzax viloyati xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi o'quv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash (umumiy fanlar bo'yicha) ma'ruza matni. – Jizzax: 2020-y